

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

V.O.Gofurova

Environmental and socio-cultural impact of tourism	6
--	---

FALSAFA

M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova

Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida)	10
---	----

A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova

Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li	14
---	----

A.A.Abduvaxidov

Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi	18
--	----

I.A.Asatulloev

Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari	23
---	----

S.S.Sodiqov

Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati	27
---	----

A.A.Abdusalomov

Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari	33
--	----

M.R.Axmadova

Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni	36
---	----

Sh.A.Dolimov

Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	40
--	----

G.M.Ravshanova

Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari	43
---	----

D.S.Raxmatova

Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi	48
--	----

N.T.Xolikov

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili	54
--	----

S.S.Mamatkadirov

Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari	58
--	----

Sh.E.Daniyarov

Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari	62
--	----

U.B.Maxtumova

Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat	67
---	----

O'.M.Xamroqulov

Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarning o'rni	70
---	----

Y.Y.Turobov

XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari	75
---	----

Sh.M.Xaydarova

Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari	82
---	----

D.M.Xusanov

Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarning o'zgarishi dialektikasi	86
--	----

F.M.Usarov

Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari	90
--	----

M.M.Mamasaliyev

O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili	93
--	----



UO'K: 316.77+004.738.5+316.7

**MA'NAVIY TARG'IBOT ISHLARINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOY-MADANIY
TEKNOLOGIYALARNING O'RNI****РОЛЬ СОЦИО-КУЛЬТУРНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ДУХОВНОЙ
ПРОПАГАНДЫ****THE ROLE OF SOCIO-CULTURAL TECHNOLOGIES IN ENHANCING SPIRITUAL
PROPAGANDA****Axmadova Marjona Ravshanbek qizi** 
Farg'ona davlat universiteti magistranti**Annotatsiya**

Mazkur maqolada jamiyat taraqqiyoti jarayonida, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishdagi ahamiyati, uning davlat boshqaruvini modernizatsiyalash, va jamiyatni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilindi. Zamonaviy texnologiyalarning boshqaruv jarayonlariga integratsiyalashuvi, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishdagi samaradorligi va aholi farovonligini oshirishga ta'siri o'rganildi. Shuningdek maqolada, zamonaviy texnologiyalarning uyg'unligi tahlil qilinib, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ilgari suriladi.

Аннотация

В данной статье анализируются понятие технологии, значение социо-культурных технологий в повышении эффективности духовной пропаганды, их роль в модернизации государственного управления и развитии общества. Исследуется интеграция современных технологий в управленческие процессы, их эффективность в реализации социальных реформ и влияние на повышение благосостояния населения.

Abstract

This article analyzes the concept of technology, the significance of socio-cultural technologies in enhancing spiritual propaganda, and their role in modernizing public administration and developing society. The study examines the integration of modern technologies into governance processes, their effectiveness in implementing social reforms, and their impact on improving public welfare.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, targ'ibot texnologiya, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, davlat boshqaruvi, modernizatsiya, jamiyat rivoji, innovatsion yondashuvlar, islohotlar.

Ключевые слова: духовность, пропаганда, технологии, социо-культурные технологии, государственное управление, модернизация, развитие общества, инновационные подходы, реформы.

Key words: spirituality, propaganda, technology, socio-cultural technologies, public administration, modernization, social development, innovative approaches, reforms.

KIRISH

Zamonaviy axborot jamiyatida ma'naviy targ'ibot jarayonlarini samarali tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 26-yanvardagi PQ - 0243- sonli qarorida ma'naviy-ma'rifiy ishlarga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish, yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash muhim vazifa sifatida belgilangan. Mazkur qarorda "Mamlakatimizda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda internet jahon axborot tarmog'i imkoniyatlaridan foydalanish hamda zamonaviy targ'ibot texnologiyalarni keng joriy etish to'g'risida" qaror loyihalarida qator vazifalar belgilab berildi [1.1-4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviyat va Ma'rifat Kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu Kengashning yig'ilishida 2023-yil 22-dekabrda Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning nutqlarida yosh avlod tarbiyasida ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish zarurligini ta'kidlab, "Ma'naviyatni yangi kuchga, yangi harakatga aylantirish kerak!" degan fikrni ilgari surgan [2.5-6]. Ushbu ezgu da'vat asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash bo'yicha bir qator vazifalar belgilab berildi. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash doirasida tasirchan targ'ibot

FALSAFA

texnologiyalarini ishlab chiqish va amalyotga joriy etishda, xususan, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli media va innovatsion axborot texnologiyalari ma'naviy targ'ibotning ajralmas qismi bo'lmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ma'naviy targ'ibot jarayonlariga ta'siri bo'yicha o'zbekistonlik va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Shu jumladan, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar mavzusiga bag'ishlangan asarlar qatoriga V.G.Afanasyev, Y.P. Surminov va N.V. Tulenkovlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Bu faylasuv olimlarning ijtimoiy va texnologik jarayonlarga oid fikrlari bugungi kunga asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Jurnalist va falsafa professori Viktor Grigoryevich Afanasyev o'zining "Ijtimoiy axborot va ijtimoiy rivojlanishni tartibga solish" asarida ijtimoiy - madaniy texnologiyalarni jamiyat yangilanishida boshqaruv mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladi [3.78].

Xorijiy tadqiqotchilardan Manuel Castells Olivan "The Information Age: Economy, Society and Culture" (Axborot jamiyati) nazariyasida raqamli texnologiyalarning jamiyatga integratsiyalashuvi natijasida yangi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar sodir bo'lishi jarayonlarini o'rgangan. Uning tadqiqotlari raqamli texnologiyalar orqali targ'ibotning yangi shakllarini yaratish imkoniyatlarini ochib beradi [4. 5].

Media tadqiqotchi Henri Jenkins "Convergence Culture: where Old and New Media Collide" asarida yangi media vositalarining an'anaviy media bilan uyg'unlashuvi jarayonini tahlil qilib, raqamli madaniyat orqali jamiyat ongini shakllantirish imkoniyatlarini ko'rsatib bergan. Ularning izlanishlari shuni ko'rsatadiki, innovatsion targ'ibot texnologiyalari yordamida yosh avlodning ma'naviy qarashlarini mustahkamlash mumkin [5.85].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar zamonaviy jamiyatda ma'naviy targ'ibot ishlarini yanada samarali qilish uchun kuchli vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Texnologiya" tushunchasiga keladigan bo'lsak, ushbu ibora grekcha "techne"-san'at, mohirlik, qobiliyat va "logos"-ta'limot, fan so'zlaridan kelib chiqadi. Dastlab ushbu termini Geraklit fanga kiritgan. Keyinchalik bu ibora jamiyatning boshqa jabhalarida kengroq foydalana boshlangan bo'lib, u insonlar tomonidan yaratilgan va turli jarayonlarni amalga oshirishda foydalaniladigan ilmiy bilim va amaliy vositalarning jamlanmasini anglatadi.

"Texnologiya"—bu maqsadga erishish uchun ishlab chiqilgan usullar, vositalar, tizimlar va jarayonlar majmuasidir. U faqatgina yangi qurilmalar yoki texnik vositalar yaratish bilan bog'liq emas, balki mavjud jarayonlarni yaxshilash, resurslardan samarali foydalanish, muammolarni hal qilish va inson hayotini osonlashtirish uchun amalga oshiriladigan ilmiy va amaliy yondashuvlar hamdir. U turli sohalarida, shu jumladan ishlab chiqarish, axborot almashish, aloqa, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqaruv tizimlarida qo'llaniladi. Texnologiyaning maqsadi — insonlar hayotini soddalashtirish, tezlashtirish va optimallashtirish, shuningdek, mavjud resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratishdir.

Texnologiyaning rivojlanishi jamiyatning turli sohalariga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Boshqacha qilib aytganda, texnologiyalar jamiyatni yanada modernizatsiyalash, iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy tizimlarni optimallashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni qo'llash nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy rivojlanishning yangi shakllarini yaratishga yordam beradi. Texnologiyalarning ma'naviy targ'ibotga ta'siri, o'z navbatida, davlat boshqaruvi va jamiyatni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyat va ma'rifatni targ'ib qilishda texnologiyalarni qo'llash nafaqat axborot yetkazish, balki jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni kuchaytirish, odamlarning ongini o'zgartirishda ham katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalarning boshqaruv jarayonlariga integratsiyasi davlat boshqaruvini modernizatsiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqotda aniqlanganidek, zamonaviy texnologiyalar davlat boshqaruvini modernizatsiyalash va samarali boshqaruv tizimini yaratishda muhim vositaga aylangan. Davlat boshqaruvi tizimini strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish talabi qo'yildi. Binobarin, fuqarolik jamiyatini barpo etishda, o'ziga xos ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni joriy etish bilan jamiyatni yuksaltirishga oid yangi ilmiy konsepsiyalar yaratilmoqda. Ushbu ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning raqamli shaklda joriy etilishi, davlat organlari va jamoatchilik o'rtasidagi aloqalarni tezlashtirib, boshqaruvning shaffofligini oshiradi. Internet va raqamli platformalar orqali aholining fikrini o'rganish va uning ehtiyojlariga javob

berish imkoniyatlari oshadi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda yuqori samaradorlikka olib kelmoqda.

Davlat va jamiyatni boshqarishda shaxsdan aql-idrokka asoslanish talab qilinadi. Inson faoliyatida aqlga muvofiqlik xilma-xil ehtiyojlarni aniqlashda, ijtimoiy va individual faoliyatni rejalashtirishda, voqelikni tushunish va kelajakni bashorat etishda katta ro'l o'ynaydi. Boshqarishda yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish jamiyatni ilmiy boshqarishning ijtimoiy-madaniy texnologiyalarini qanchalik joriy etilganligiga bog'liqdir [6.14].

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining buguni va ertangi kunini belgilab beruvchi ta'minot manbaiga aylanib qoldi deyishimiz mumkin. Chunki axborot texnologiyalari jamiyat, jamiyatdagi fuqarolar, ijtimoiy guruhlar va turli tabaqalar o'rtasida o'zaro aloqa bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qilib kelmoqda [7.45].

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar orqali amalga oshirilayotgan innovatsion yondashuvlar, ayniqsa, yoshlar orasida ma'naviyatni targ'ib qilishda katta natijalar ko'rsatmoqda. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etishda, davlat va jamiyat boshqaruvining ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish zarurati keltirib chiqarmoqda. Davlat boshqaruvida "Xalq qabulxonalari", "Elektron hukumat" kabi hujjatlar bazasini tashkil etishda ijtimoiy texnologiyalarning o'rni benihoya muhimdir. Tashkilot va muassasalarni boshqarishda, boshqaruv kadrlarni huquqiy hujjatlarini bilan ishlashda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar muhimdir. Bundan tashqari, Xalq bilan muloqotni amalga oshirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar aholining qonuniy manfaatlariga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning jamiyat rivoji va aholi farovonligini oshirishdagi ta'siri shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar nafaqat axborot tarqatish, balki jamiyatda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda ham muhim vositadir. Innovatsion texnologiyalar yordamida islohotlarning samaradorligi oshib, aholining turmush darajasi yaxshilanadi. Ma'naviy targ'ibotning yangicha shakllari, jumladan, onlayn va oflayn tadbirlar, aholi orasida ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlashga yordam beradi. Raqamli texnologiyalar nafaqat ma'naviyat tarqatish vositasi, balki ma'naviy-ma'rifiy ishlarni o'lchash va tahlil qilish imkoniyatini ham taqdim etadi [8.22].

Umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning "Ma'naviyat va ma'rifat markaz tashkil etilishi to'g'risida" gi qaror ma'naviyatni targ'ib qilish, yoshlarni tarbiyalash, jamiyatda axloqiy va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjatdir. Mazkur qarorda, jamiyatning ilmiy, madaniy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Yoshlar o'rtasida ma'naviy targ'ibot ishlarida qo'llashda, jamiyatda ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ma'naviyatni targ'ib qilish, jamiyatni ma'rifatli qilish va davlat boshqaruvini modernizatsiyalash muhimdir. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ma'naviy ishlar samaradorligini oshirib, jamiyatda ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishda yangicha imkoniyatlar yaratish mumkin.

Milliy g'oya targ'ibotini kuchaytirish, jamiyatni sog'lom mafkura, yangi ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyatni barpo etishda, ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yordamida jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ijtimoiy adolatni targ'ib qilish mumkin. Ma'naviyat va ma'rifat markazlari faoliyatini dasturiga, Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash uchun **"Kuchli ma'naviyat bilan yangi O'zbekiston sari"** nomli konsepsiya ishlab chiqish, milliy mentalitetimizga xos va aholi uchun tushunarli bo'lgan kreativ targ'ibot texnologiyalar, tahliliy ko'rsatuv va tok-shovlar tayyorlash ularni namoyish etish, OAB va jtimoiy tarmoqlarda keng namoyish etish kabi bir qator vazifalar belgilab berildi. Ma'naviyat va ma'rifat markazlari ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, multimedia texnologiyalari va boshqa innovatsion usullar yordamida axloqiy tarbiya va ma'naviy yuksalishga erishishda faol qatnashadi. Bu texnologiyalar orqali markazlar o'z faoliyatini kengroq auditoriyaga yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni qo'llash orqali yoshlarni tarbiyalashda ilg'or usullarni joriy etish mumkin. Masalan, raqamli platformalar, onlayn kurslar, interaktiv seminarlar va treninglar yordamida yoshlar o'rtasida ma'naviy va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilishni yanada samarali amalga oshirish mumkin. Ma'naviyat va Ma'rifat Markazlari bu texnologiyalar orqali yoshlarni ijtimoiy mas'uliyatli, axloqiy, ilmiy va ma'naviy jihatdan yetuk shaxslar sifatida tarbiyalaydi. Madaniy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, masalan, multimedia materiallar, virtual muzeylar, tarixiy hujjatlar va raqamli texnologiyalar yordamida milliy madaniyatni keng ommaga yetkazishda faol xizmat qiladi. Shuningdek, milliy an'analarni, tilni, san'atni va madaniy merosni saqlashda texnologiyalar yordamida yangi avlodni o'qitish va ma'lumotlarni etkazish juda muhim. Ijtimoiy-madaniy texnologiyalar jamiyatda keng ommaga xizmat qilishda ham

FALSAFA

ahamiyatlidir. Ma'naviyat va Ma'rifat Markazlari jamoatchilik bilan aloqada bo'lish, fikr almashish, fikrlarni shakllantirish va yangi g'oyalarni ilgari surishda texnologiyalarni samarali qo'llash orqali jamiyatni ma'naviy jihatdan rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy texnologiyalar yordamida Ma'naviyat va Ma'rifat Markazlari global miqyosda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ladi. Boshqa davlatlar bilan madaniy almashinuv, tajriba va bilimlar almashish, xalqaro tadbirlar va konferensiyalar tashkil qilish orqali, markazlar milliy madaniyatni dunyo miqyosida targ'ib qilishga erish mumkin.

XULOSA

Maqolada ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishdagi ahamiyati tahlil qilindi. "Ma'naviyat va ma'rifat" markazlari jamiyatda nafaqat milliy, balki, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishda, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini rivojlantirishda va milliy madaniyatni saqlashda katta rol o'ynaydi. Ushbu markazlarning dasturlarini amalga oshirishda, zamonaviy texnologiyalar yordamida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni keng ommaga tarqatish, ilmiy va madaniy jarayonlarni boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Birinchidan, Aholini ijtimoiy dunyoqarashini va madaniy saviyasini oshirish maqsadida har oyning juma kunlari **"Teatr kuni"** deb belgilandi.

Ikkinchidan, Respublika miqyosida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida turli ko'rik tanlovlar (online) viktorinalar tashkil etishdi.

Uchunchidan, Ijtimoiy siyosiy, axborot-psixologik, g'oyaviy- mafkuraviy xurujlar hamda turli yod va buzg'unchi g'oyalarning mazmunini ochib berishga doir ko'rsatuv va tok-shovlar tayyorlash, bundan tashqari, **"Oyina.uz"** portal orqali jadid bobolarimizning ijodiy merosi, g'oyalarni yosh avlodga yetkazish, yoshlar va ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari orasida trendga olib chiqish maqsadida "Jadidlar izdoshi" loyihasini amalga oshirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalar, xususan, raqamli platformalar, interaktiv tadbirlar, axborot texnologiyalari orqali jamiyatdagi ma'naviy, axloqiy va madaniy o'zgarishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar orqali milliy qadriyatlarni saqlash, yoshlarni ilmiy va ma'naviy jihatdan tarbiyalash, va madaniy almashinuvni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, xalqaro madaniyat bilan tanishishda va o'zimizning milliy madaniyatimizni dunyoga tarannum etishda texnologiyalar samarali foydalanish mumkin.

Quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir:

Respublika "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi targ'ibotchilar guruhlarini va mas'ullar bilan birgalikda jamiyatni ilmiy boshqarish va yuksaltirishga doir ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni va vazifasiga doir ma'ruzalar tayyorlash.

Ta'lim tizimida va keng jamoatchilikka ijtimoiy-madaniy va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanishni o'rgatish maqsadida tadbirlar tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Milliy qadriyatlarni targ'ib qilishda, yoshlarning ma'naviy va axloqiy tarbiyasini shakllantirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni mavzusida mahallalarda turli tadbirlarni tashkil etish tavsiya qilinadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - Toshkent: Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2021-yil 26-yanvar – 07/21/5040/0243 son.
2. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2024- yil uchun yillik chora - tadbirlar ro'yhati.
3. Афанасьев В.Г. Социальная информация и управление обществом. – Москва: URSS, 1997.
4. Castells M.O. The Information Age: Economy, Society and Culture. -UK: Blackwell, 1998.
5. Jenkins H. Convergence Culture:Where Old and New Media Collide. - New York: New York University Press, 2006.
6. Mamayusupov U.Q. Bashoratning nazariy-metodologik asoslari va uning ilmiy bilishdagi o'rni. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent, 2019.
7. Yuldashev S. O'. Davlat va jamiyat boshqaruvida kadrlar innovatsion faoliyatini yuksaltirishning ijtimoiy-madaniy xususiyatlari // HamDU ilmiy axborotnomasi. - № 9 Namangan, 2021.
8. Yuldashev S.O'. Jamiyat boshqarishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni //Fuqarolik Jamiyati. Гражданское общество. - № 4. – Toshkent, 2020.